

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SALIXOV SAIDAMIR ALISHER O‘G‘LI

**KORPORATIV LOGISTIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA
EKSPORT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
("MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI" MISOLIDA)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economy
sciences**

Salixov Saidamir Alisher o‘g‘li

Korporativ logistik tizimlarni rivojlantirish asosida eksport faoliyatini takomillashtirish (“meva-sabzavot mahsulotlari” misolida) 3

Салихов Саидамир Алишерович

Совершенствование экспортной деятельности на основе развития корпоративных логистических систем (на примере «плодоовощной продукции») 25

Salikhov Saidamir Alisher ugli

Improving export activities based on the development of corporate logistics systems (on the example of “fruits and vegetables”) 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SALIXOV SAIDAMIR ALISHER O‘G‘LI

KORPORATIV LOGISTIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA
EKSPORT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(“MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI” MISOLIDA)

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/ Iqt2825 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xamidov Obidjon Xafizovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Akrom Abdiyevich Xashimov**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmanova Diyora Maxmud qizi
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2020.1.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 20__ yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (+99871) 239-01-49; faks: (+99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz..

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (+99871) 239-01-49; faks: (+99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil ____ _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.f.d., dotsent

R.X. Karlibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tovarlar eksporti orqali daromadni oshirib borish Germaniya, Finlandiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, AQSh va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida keng qo'llaniladi. "Yevropa Ittifoqida 80 dan ortiq logistika markazlari uchun hududlar ajratilgan. Ushbu raqam 217 ming km. temir yo'llarni (8,9 ming km tezyurar poyezd uchun), 77,4 ming km avtomobil yo'llarini, 36 ming km. quvur liniyalarini, 325 ta aeroportlarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, bir qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. 2006-yil iyul oyida Yevropa Ittifoqida "Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida klasterizatsiyalash uchun Manifest"ni tasdiqladi va qabul qilindi, 2007-yil dekabrda esa "Yevropa klasterlari to'g'risida memorandum" tayyorlandi va tasdiqlash uchun taqdim etildi, 2008-yil 21-yanvarda Stokgolmda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari rahbarlarining "Innovatsiyalar va klasterlar" konferensiyasida tasdiqlandi. Bugungi kunda meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportida korporativ logistikani qo'llash dunyoning bir qancha yirik davlatlarida o'z samaradorligini namoyish etdi. Masalan, aynan shu tizim Fransiya va Gollandiyada qishloq xo'jaligi sohasida qo'llaniladi. Sloveniyadagi transport-logistika klasteri 2003-yilda tashkil etilgan bo'lib, transport ekspeditsiyasi va yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi, ta'lim dasturlarini ishlab chiquvchi va havoning ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni hal qiluvchi 13 ta kompaniya va 3 ta muassasani o'z ichiga oladi". Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida transport-logistika markazlarining mamlakat iqtisodiyotida o'rni juda muhim. Xususan, Niderlandiyadagi ushbu markazlar faoliyatidan olingan daromadlar butun transport sektori daromadlarining 40 %dan ortig'ini, Fransiya – 31 %, Germaniyada – 25 %ni tashkil qiladi. Markaziy va Sharqiy Yevropaning barcha davlatlarida bu ulush o'rtacha 30 %ga yetadi.

O'zbekistonning geografik joylashuvi va dengiz portlaridan uzoqda joylashganligi sababli eksportchi va importchilar yuqoriroq transport hamda logistika xarajatlari ko'rinishida qo'shimcha yukni o'z zimmalariga oladilar. Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlat sifatida O'zbekistonga olib kelinayotgan tovarlar kamida 4 ta tekshiruv tartibotidan o'tadi, qirg'oqbo'yi mamlakatlar esa faqat bitta jarayondan o'tadi. Shuningdek, chegarani kesib o'tish nuqtalarida sezilarli kechikishlarga sabab bo'ladi. Bunday holatlar mamlakatimiz meva-sabzavotlari eksportida o'ta muhim o'ringa ega.

Respublikamizda mahsulotlar eksportida korporativ logistikadan foydalanish masalasida so'nggi yillarda bir qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda respublikamizda 5 ta, ya'ni "Navoiy" xalqaro intermodal logistik markazi, "Angren", "Toshkent", "Termiz" va "Pop" xalqaro logistika markazlari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqda. Respublikamizda transport-logistika sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bazasi yaratildi. Jumladan, 6 ta qonun, 7 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi hamda 9 ta ortiq xalqaro konvensiyalarga a'zo bo'lindi. Lekin qonunchiligimizda mahalliy va xalqaro tarzda yuklarni tashishning huquqiy bazasi yaratilgan bo'lsa-da, intermodal logistika markazlari va turli xizmat

ko‘rinishdagi terminallarning infratuzilmalari rivojlanmaganligi sababli transport-ekspeditorlik xizmati bir tomonlama rivojlanib, intermodal logistika markazlari va terminallarning iqtisodiyotimizda mustahkam o‘rin egallamagan. Shuningdek, transport-logistika sohasidagi tariflarning yuqoriligi, xalqaro transport-logistika markazlarni tashkil etishda xususiy sektorlarning ulushi pastligi, transport-logistika markazlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi idoraviy tuzilmasi mavjud emasligi, milliy qonunchiligimizda transport-logistikasi sohasidagi jozibadorlik darajasi pastligi, transport-ekspeditorlik xizmatlarini sust rivojlanganligi singari bir qator o‘z yechimni kutayotgan muammolar ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2018-yil 1-martdagi PF-5366-sonli “O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzitni amalga oshirish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-martdagi PF-5388-sonli “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 2-dekabrda PQ-3422-sonli “2018–2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-martdagi PQ-4239-sonli “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 6-martdagi PQ-4230-sonli “Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tovar va mahsulotlarni eksport qilishda logistika xizmatidan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari ko‘pchilik xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, M.Porter, R.Xok, J.Stok, A.Xarrison, D.Uoters, I.Ansoffa, A.Chandler, A.J.Striklend, B.Karloff, A.A.Tompson, D.M.Lambert singari xorijlik olimlar logistikaning umumiy nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qilgan bo‘lsalar, rossiyalik olimlardan B.A.Anikina, T.A.Rodkina, G.Levkin, V.I.Sergeyev, D.V.Domnina, S.V.Budrina, V.V.Dibskaya, A.Novakov, I.D.Afanasenkov, V.V.Borisova, V.Volgina, V.A.Shtanskiy, Y.M.Nerush, M.A.Chernisheva, L.B.Mirotina, A.S.Balalayev, A.V.Kochemasova, S.N.Tretyak, A.N.Rodnikov¹ va boshqalar ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borganlar.

¹ Porter M. International competition, 1990-y.; Tompson A.A., Striklend A.J. Strategy management. The art of strategy development and implementation. – M.: Banks and Exchanges, UNITI, 1998 y.; Ansoff I. New corporate strategy. – P.: Piter Komm, 1999.; Stok D.R., Lambert D.M. Strategy management of logistics. Obuchalka.org, 2015 y.; Uoters D. Logistics, supply chain management. Obuchalka.org, 2003 y.; Chandler A. «Scale and Scope» 1990 y.; Harrison A. “Logistic management: Development of logistics operations strategies” //Balance business books, 2007 y.; Аникина Б.А. и Родкина Т.А. Основы логистики, 2011 г. «ООО Проспект»; Левкин Г.Г. Основы логистики,

meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistik jarayonlarni qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;

“O‘zbekoziqovqatzaxira” uyushmasida korporativ logistik tizimning tashkiliy mexanizmlari va undan foydalanishning amaldagi holati tahlilini amalga oshirish;

“O‘zbekoziqovqatzaxira” uyushmasida korporativ logistik tizimni samarali tashkil etishdagi mavjud muammolarni aniqlash;

meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimlarni samarali tashkil etishning ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish;

korporativ logistik tizimning meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish;

O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimlarni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasining meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bilan shug‘ullanuvchi “O‘zbekoziqovqatzaxira” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini meva-sabzavot mahsulotlari eksporti tashkil etish va boshqarish jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umumiy ilmiy, rasmiy-mantiqiy, vaziyatni o‘rganishning o‘ziga xos usullari, tasniflash, umumlashtirish, gorizont va vertikal taqqoslash, ekonometrik modellashtirish, chiziqli dasturlash usullari, empirik, omillarni tahlil qilish, prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz va barqaror narxlarda eksport qilishda transport tashuvlari, omborxonalar operatsiyalari, zaxiralarni boshqarish tizimi tarkibidagi logistik xizmatlar diversifikatsiyasini yangi xizmat turlarini mustaqil jarayon sifatida spetsifikatsiyalash asosida kengaytirish orqali zamonaviy korporativ logistik tizim yaratish taklifi asoslangan;

logistika markazlari hamda muzlatkich omborlaridan mahsulotlarni eksport qilish jarayonida Xitoy – O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron tranzit koridorlaridan foydalanishda transport yo‘laklaridagi muqobil harakat uzluksizligini ta'minlash ta'sirida vaqt sarfi hamda harakatning to'xtab qolish risklarini “zaxira yo‘nalish / vositalar muvofiqligi” yordamida kamaytirish orqali tabiiy yo‘qotishlarni qisqartirish taklifi asoslangan.

“O‘zbekoziqovqatzaxira” uyushmasi hamda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi yuridik va jismoniy shaxs ko‘rinishidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida davlat-xususiy sheriklikdagi korporativ munosabatlarda mahsulot tayyorlash-saqlash-tashish jarayonlarining “eng quyi tannarxni ta'minlash” yondashuvi asosida meva-sabzavot mahsulotlarini uzluksiz va barqaror narxlarda eksportga yetkazib berish taklifi asoslangan;

ekonometrik tahlil asosida korporativ logistik tizimning meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sirining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimlarni samarali tashkil etish imkoniyatlari yuzasidan korporativ logistik tizimlar faoliyatini takomillashtirish orqali istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish jarayonini nazariy-metodologik va uslubiy jihatdan takomillashtirish, ulardan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar, ilmiy fikr-mulohazalar va nazariy g'oyalardan sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, mazkur soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o'quv yurtlarining "Logistika", "Marketing", "Menejment", "Korporativ boshqaruv", "Tovarshunoslik" singari fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda olib borilgan izlanishlar natijasida meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda logistik boshqaruv usulini joriy etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida quyidagilar amaliyotga joriy etildi:

Oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz va barqaror narxlarda eksport qilishda transport tashuvlari, omborxonalar operatsiyalari, zaxiralarni boshqarish tizimi tarkibidagi logistik xizmatlar diversifikatsiyasini yangi xizmat turlarini mustaqil jarayon sifatida spetsifikatsiyalash asosida kengaytirish orqali zamonaviy korporativ logistik tizim yaratish taklifi asoslangan. Mazkur ilmiy yangilik bo'yicha takliflar "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasining meva-sabzavot hamda oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz va barqaror ravishda iste'molchilarga yetkazish zanjirini tashkil qilishda amaliy yordam berib, zamonaviy korporativ tizim yaratilishi natijasida oziq-ovqat zaxiralaridan samarali foydalanish darajasini 6 foizga qadar oshirish imkonini yaratdi ("O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasining 2023-yil 25-iyuldagi 01-01/177-sonli ma'lumotnomasi);

logistika markazlari hamda muzlatkich omborlaridan mahsulotlarni eksport qilish jarayonida Xitoy–O'zbekiston–Turkmaniston–Eron tranzit koridorlaridan foydalanishda transport yo'laklaridagi muqobil harakat uzluksizligini ta'minlash ta'sirida vaqt sarfi hamda harakatning to'xtab qolish risklarini "zaxira yo'nalish/vositalar muvofiqligi" yordamida kamaytirish orqali tabiiy yo'qotishlarni qisqartirish taklifi asoslangan. Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga tatbiq etish orqali mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan logistika markazlari tomonidan mahsulotlarni eksport qilish jarayonini yangi bosqichga olib chiqildi hamda yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlari, uzum va poliz mahsulotlarining tabiiy yo'qotishlari 10 foizga qadar kamayishiga erishildi ("O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasining 2023-yil 25-iyuldagi 01-01/177-sonli ma'lumotnomasi).

"O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi hamda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi yuridik va jismoniy shaxs ko'rinishidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida davlat-xususiy sheriklikdagi korporativ munosabatlarda mahsulot tayyorlash-saqlash-tashish jarayonlarining "eng quyi tannarxni ta'minlash"

yondashuvi asosida meva-sabzavot mahsulotlarini uzluksiz va barqaror narxlarda eksportga yetkazib berish taklifi asoslangan. Miazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi 2022-yilda 2 million 749 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarining eksport qilinishiga qisman ta'sir qilib, bu 2021-yilga nisbatan 11 foizga ko'p. 2023-yilning olti oyi davomida esa O'zbekiston Respublikasida qiymati qariyb 760,2 million dollarga teng bo'lgan 1,2 million tonna meva-sabzavotlar eksport qilingan bo'lib, mazkur ko'rsatkichlar oshishida mahsulot tayyorlash-saqlash-tashish jarayonlarining "eng quyi tannarxni ta'minlash" yondashuvining o'rni bor ("O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasining 2023-yil 25-iyuldagi 01-01/177-sonli ma'lumotnomasi);

ekonometrik tahlil asosida korporativ logistik tizimning meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sirini 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ishlab chiqildi. Mazkur ilmiy yangilik "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi tomonidan qabul qilindi. Natijada O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirish uchun asosiy takliflar shakllantirildi ("O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasining 2022-yil 21-dekabrda 04-01/27-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan. Jumladan, 2019 va 2020-yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari" ikkinchi va uchinchi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida hamda 2020-yil mart oyida o'tkazilgan "Buxoro viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va yechimlar" ilmiy-amaliy anjumani va 2022-yil 5-oktyabr kuni o'tkazilgan "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilingan³.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 121 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib

³ https://inconference.uz/section-search/?_sft_category=economic-sciences

berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimdan foydalanishning nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari**" nomli birinchi bobida meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistik strategiyasining nazariy va uslubiy asoslari tavsiflanib, mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlari eksportining to'laqonli rivojiga to'sqinlik qilayotgan xavflarni bartaraf etish, eksport faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini takomillashtirish, shuningdek, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarining tashqi bozorlar eksportida logistik strategiyasini ishlab chiqishning kompleks tizimini tashkil etish ishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Hozirgi kunda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistikaning tutgan o'rni oshishi birinchi navbatda iqtisodiy sabablarga bog'liq. Ishlab chiqarish hajmining oshishi va milliy hamda xorijiy aloqalarining kengayishi bozor sohasidagi tannarx xarajatlarining maksimal kamaytirilishiga ko'proq e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Hozirgi kunga kelib, xorijiy mamlakatlarda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida xomashyo va materiallarining birinchi manbaidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan mahsulot harakati vaqtining 93 foizi moddiy texnik ta'minotining turli kanallaridan o'tishiga to'g'ri kelmoqda. Tayyor mahsulot ishlab chiqarilish umumiy vaqtning atigi 2 foizini olsa, uni tashish esa -5 foizini o'z ichiga oladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tayyor mahsulot harakatining mahsulotdagi ulushi milliy daromadning 20 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda⁴.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistika tizimining 3 ta funksiyasi mavjud:

Integratsiyalovchi funksiya. Logistik infratuzilmalarni rivojlantirish sohasida – eksport faoliyatini yanada rivojlantirish, yuk tashish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasi va sifatini oshirish, jahon bozorlariga chiqish uchun istiqbolda yangidan yangi xalqaro koridorlar loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, globalizatsiya jarayonlarida multimodal logistika markazlarini rivojlantirishda korporativ logistik tizimlardan foydalanish, transport klasterlarini yaratish, sanoat erkin iqtisodiy zonalar va logistik klasterlar loyihalarini ishlab chiqishda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xalqaro logistika markazlarini barpo etish bilan baholanadi

Tashkillashtiruvchi funksiya. Mahsulot harakati jarayonida yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar o'rtasida xo'jalik aloqalari tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Mehnatning mahsulot harakati bosqichlari bo'yicha bo'linishi xo'jalik aloqalarining obyektiv asosi sifatida xizmat qiladi, bu esa jarayonlarning alohidalashuviga olib keladi va turli aloqa tizimlari birlashtiruvchilari talabini yuzaga keltiradi. Bu masalaning yechimi bir butun oqimli jarayon ichida mahsulotlar va axborotning ishlab chiqaruvchi – iste'molchi zanjiri bo'yicha harakatini tashkil etish, alohida bosqichlarining o'zaro ta'sirini ta'minlash va mahsulot harakati qatnashchilari harakatlarini moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

⁴<https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-meva-sabzavotlikni-rivojlantirish-tendenciyalari-va-istiqbollari>

Boshqaruvchi funksiya. O'rganilayotgan jarayonning barcha qismlarini o'zaro moslashtirish va ratsional o'zaro harakatiga erishish uchun ularni boshqarish zarur. Logistik boshqaruv hamma turdagi resurslarning tejalishi, tovar harakati bosqichlarida jonli va buyumlashtirilgan mehnatga sarflanuvchi xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan. Keng ma'noda logistikaning mahsulotlar harakati jarayoniga boshqaruv ta'siri mahsulot o'tkazuvchi tizim parametrlarini berilgan chegarada saqlashdan iborat.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistikaning rivojlanishi, birinchi navbatda, mahsulot harakati bilan bog'liq vaqtinchalik va moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga intilish bilan bog'liq.

Iqtisodiy omil. Hozirgi kunda ishlab chiqarish xarajatlari va moliya xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini qidirish asosiy o'ringa qo'yilmoqda. Logistika mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning iqtisodiy qiziqishlarini bog'lash imkonini beradi.

Tashkiliy-iqtisodiy omil. Iqtisodiyotda tovar aylanishi jarayonlarini amalga oshiruvchi yangi tizimning vujudga kelishi va rivojlanishi davomida, boshqaruv va koordinatsiyaning integratsion tizimlari, hamda ishlab chiqaruvchi, korxonalar, iste'molchilar, omborlar va transportning o'zaro ta'sirining logistik jarayonlarini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot omili. Bozor munosabatlari sharoitida axborot aloqalarining rivojlanishiga ko'maklashadi, ular bozor munosabatlarining sababi va natijasi bo'lib, bir – birlarini o'zaro to'ldirib boradi. Axborot jarayoni logistika bilan bozor konyukturasini chambarchas bog'laydi, chunki logistik jarayonlarning predmeti, vositasi va tashkil etuvchisi axborot oqimlari hisoblanadi.

Texnik omil. Bu omil logistikani tizim sifatida o'rganadi, uni boshqarish obyektlari va subyektlari transport, ombor xo'jaligi, saqlash va boshqarishni kompyuterlashtirishda zamonaviy innovatsion texnologiya yutuqlarini qo'llash asosida rivojlanadi.

Tovar harakati jarayonlariga davlatning ko'magi. Zamonaviy sharoitlarda tovar harakatini nazorat qilish masalasi nafaqat korxonalar darajasida, balki hududlar hamda mamlakat miqyosida amalga oshadi.

1-rasm. Korporativ logistikaning dolzarbligini belgilovchi omillar⁵

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotimizda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistika sohasini takomillashtirish yuzasidan iqtisodchi olimlar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi hamda bu sohada ilmiy izlanishlar olib borilishi kelgusida meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistika sohasini rivojlantirishga ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistikaning dolzarbligini belgilovchi 5 ta omilni ajratish mumkin. Ular 1-rasmda aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimlarni amaldagi holatining tahlili”** nomli ikkinchi bobida **“O'zbekoziqovqatzaxira”** uyushmasida korporativ logistik tizimning tashkiliy mexanizmlari hamda mahsulotlar eksportida korporativ logistik tizimlardan foydalanishning amaldagi holati tahlili keltirilgan. Hozirgi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan korporativ logistika tizimi juda muhim o'ringa ega. Samarador korporativ logistika tizimi ichki bozorda tayyor

⁵ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

mahsulot va xomashyo harakatini jadallashtirish orqali mahsulot va xizmatlarning mijozlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rivojlantiradi. Eksport bozorida esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlaydi va jahon iqtisodiyotiga transformatsiya jarayonini tezlashtiradi. Milliy iqtisodiyotimiz uchun samarador korporativ logistika tizimini tashkil qilish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xalqaro logistika samaradorligi indeksi mamlakat tashqarisida ishlovchi logistika sohasidagi ekspertlarning savdo hamkorlari fikri asosida mamlakatning olti tarkibiy qismiga sifatli baho beradi. Ushbu komponentlar zamonaviy xalqaro logistika markazlarida logistika samaradorligi indeksini aniqlashda muhim omil hisoblanadi, bunda logistika sektori ish samaradorligining umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagi 6 ta asosiy samaradorlik komponentini yagona kompleks ko'rsatkichga birlashtiradi.




2-rasm. Xalqaro logistikaning samaradorlik indeksi⁶

Jahon Banki tomonidan chop etiladigan logistika samaradorligi hisobotida O'zbekiston "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'onaga ko'tarildi. Hisobotni ishlab chiqishda bojxona samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashimalarni tashkil qilish osonligi, soha mutaxassislarining bilim va salohiyati, yuklarni kuzatish imkoniyati va yuklarni o'z vaqtida yetkazish darajasi singari me'zonlar hisobga olinadi.

⁶ https://www.minjust.uz/uz/FAQ/xalqaro-reyting-va-indekslar/?ELEMENT_ID=100399

Afsuski mintaqamiz “Logistika samaradorligi” indeksi ko‘rsatkichi maqtanish darajasida emas, ya’ni ushbu ko‘rsatkich 2,6 ballni (1=past 5=yuqori sifatli) foizni tashkil qiladi. Bugungi kunda korporativ logistika tizimi samaradorligini oshirish transport-geografik noqulay joylashgan va eng arzon transport turi bo‘lgan dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, hatto chegaradosh davlatlar orqali ham chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatimizda ayniqsa dolzarb masalalardan biri hisoblanadi⁷.



3-rasm. “O‘zbekoziqovqatzaxira” uyushmasi faoliyatining eksportga doir asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari⁸

Respublikamiz O‘rta Osiyo mintaqasidagi eng yaxshi transport infratuzilmasiga ega. Davlatimiz hududidan 42530 km avtoyo‘l, 4500 km temir yo‘li (har 10000 km ga 150 km) o‘tadi va mamlakatimiz mintaqaning muhim transport koridorlariga ulaydi. O‘zbekistonning tranzit davlati sifatida ayniqsa Afg‘oniston Islom Respublikasiga (Trans-Afg‘on xalqaro transport koridori) kirish va Afg‘oniston orqali Bandar Abbas va Chobahor portlariga chiqish imkoniyati, shuningdek, Tojikiston Respublikasiga kirish imkoniyati muhim hisoblanadi. Mohiyati yildan-yilga ortib borayotgan Andijon–O‘sh–Saritosh–Irkeshtom–Qashqar koridori dunyo tarixidagi eng buyuk loyihalardan bo‘lgan va Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan taklif qilingan “Bir makon – bir yo‘l” (Belt and Road Initiative – BRI) da munosib

⁷ <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

⁸ “O‘zbekoziqovqatzaxira” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

qatnashish uchun va Xitoyni mamlakatimiz hududidan o'tuvchi yo'llar orqali boshqa mintaqalar bilan bog'lashga xizmat qiladi⁹.

Bu potensialdan foydalangan holda Turkmaniston orqali Eron va Turkiyaga, Kavkaz davlatlariga, Bojxona Ittifoqi davlatlari orqali Yevropaga chiqish mumkin. Bu imkoniyatlar ayniqsa mamlakat iqtisodiyot uchun bevosita va bilvosita ishlab chiqarish, transport, infratuzilma, turizm sohaslarida minglab ish o'rinlari yaratishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar korporativ logistika va transport sohasida ham yaqin kunlarda ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki rivojlanib borayotgan iqtisodiyot yuki, avvalo, korporativ logistika tizimiga tushadi. Shunday ekan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, import xarajatlarini kamaytirish, mahalliy bozordagi transport xarajatlarini kamaytirishtirish va xalqimiz farovonligini yanada oshirish aynan korporativ logistika samadorligiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

So'nggi yillarda respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini ko'paytirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Qish-bahor davrida ichki iste'mol bozorini barqaror to'ldirish uchun yangi meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashga g'amlash maqsadida ularni xarid qilish yuzasidan davlat buyurtmasi tizimi joriy etildi. Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash infratuzilmasi, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali muvofiqlashtirishning yetarli emasligi mavsumlar oralig'idagi davrda narxlarni barqarorlashtirish va aholi ehtiyojini qondirish uchun ularni zarur hajmlarda o'z vaqtida va to'liq g'amlash imkonini bermayapti.

Xususan, 2016-yil 8-aprelda qabul qilingan qarorga asosan "O'zulgurjisavdoinvest" uyushmasi meva va sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va omborxonalarda saqlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasiga aylantirildi. "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi O'zbekistonning barcha viloyatlaridagi meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, poliz ekinlari va uzum xarid qilish, saqlash va yetkazib berish bo'yicha 47 korxonani birlashtiradi. "Farg'ona ulgurji savdo invest" MCHJ meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonasi hamda "Markaz savdo invest" MCHJ meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonasi mazkur uyushmaning muassislari hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va 2017-yil 20-oktabrdagi PQ-3344-sonli "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan uyushmaga qo'shimcha vazifalar va faoliyat yo'nalishlari yuklangan. "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi tarkibiy tuzilmasining "Oziqovqatta'minot" hududiy filiallari 14 ta, meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va saqlash uchun g'amlash bo'yicha tashkilotlar 56 ta, aholidan meva-

⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/31/logistics/>

sabzavotlarni xarid qilish punktlari 157ta, dehqon bozorlaridagi chakana savdo pavilonlari 228 tani tashkil etmoqda. Shuningdek, uyushma tarkibida bir qator eksportchi korxonalar ham faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi globallashuv jarayonida har bir kompaniya o'z faoliyatini uzoq muddatli maqsadlarga yetishda yordam beruvchi korporativ strategiya asosida tashkil qiladi. Xususan, "O'zbekoziqovqat" zaxira uyushmasi ham o'z faoliyatini korporativ strategiya asosida olib bormoqda. Strategiyaning asosan uch sinfi mavjud: o'sish, bozordagi o'rnini saqlab qolish va chekinish strategiyalari. U yoki bu strategiya tanlovi korporativ missiya yoki firmaning ishlab chiqarish va moliyaviy holati kabi, tashqi va ichki iqtisodiy muhit ta'siriga bog'liq. Agar kompaniya bozorda uzoq vaqt o'z o'rnini saqlab qolishga qaratilgan bo'lsa, unda o'sish strategiyasini tanlaydi: konsentratsiyalangan o'sish strategiyasi (tovar yoki xizmatlar assortimentini kengaytirish va savdo hududini kengaytirish), integrallashgan o'sish strategiyasi (biznes hamkorlar bilan hamkorlik va integratsiya, holding, uyushma, alyans va h.k.), diversifikatsiya strategiyasi va h.k.

Yuqoridagi holatlarni nazarda tutgan holda "O'zbekoziqovqat" zaxira uyushmasi o'z faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida uyushma tarkibiga kiruvchi meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va saqlash uchun g'amlash bo'yicha hududiy filiallari va tashkilotlar faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, ikkinchi bobda "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasida korporativ logistik tizimini samarali tashkil etishdagi mavjud muammolar o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **"Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimlarni takomillashtirish yo'nalishlari"** nomli uchinchi bobida meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistik tizimlardan samarali tashkil etishning ilg'or xorij tajribalari hamda korporativ logistik tizimning meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sirini ekonometrik tahlili o'rganilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining iste'mol bozori uchun talab va taklif, iste'mol va ishlab chiqarish muvozanati eng muhim muammo hisoblanadi. Bunday toifalar nisbati bozorning shakllanishiga ham, aholining meva-sabzavot iste'moliga ehtiyojini qondirishga ham bevosita ta'sir qiladi.

Bugungi kunda meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish asosan meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib beruvchi logistik kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Ulgurji savdo tarmog'ini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha yirik qishloq xo'jaligi klasterlarini yaratish, korporativ logistik tizim bo'yicha innovatsion tarqatish markazlari, on-layn makonda o'z xizmatlarini ko'rsatuvchi meva-sabzavot mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishdir.

Dunyo mamlakatlarida meva-sabzavot mahsulotlari sotilishini tashkil etish tajribalariga asoslangan holda hozirgi kunda bozor savdosining jahon amaliyotida meva-sabzavot mahsulotlarining samarali korporativ logistik tizimini tashkil etishning ko'plab misollarini keltirish mumkin. Bu asosan ulgurji va chakana savdo bozorlari bo'lib, ular ulgurji sotiladigan mahsulotlarni uzoq muddatli shartnomalar asosida keyinchalik ularni ulgurji yoki chakana sotish maqsadida sotib olishning yaxshi yo'lga qo'yilgan tizimlaridir. Bunday bozorlar doimiy yetkazib beruvchi va

xaridorlarga ega bo'lish bilan birga ommaviy talab yuqori bo'lgan bozor mahsulotlarining doimiy savdosini amalga oshiradi. G'arbiy Yevropa va AQShda ulgurji meva-sabzavot mahsulotlari bozorlari barcha xizmat ko'rsatish turlari, mahsulotlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va sotishga tayyorlash uchun yordamchi binolarga ega zamonaviy savdo markazlaridir.

Jahon tajribasiga ko'ra, meva-sabzavot mahsulotlarining ulgurji bozorlarini uning ishlab chiqarilishi va talabining mahalliy konsentratsiyasini hisobga olgan holda joylashtirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ularni moddiy-texnika resurslari mavjud ulgurji savdo korxonalari asosida joriy etish mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish nafaqat bir iqtisodiy tarmoqqa, balki hudud va mamlakat iqtisodiyotiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Sababi bugungi iqtisodiy globallashtirish va bozor iqtisodiyotiga iste'molchilarning talabi sifat jihatidan tobora o'zgarib borishi va buning oqibatiga kuchli raqobat muhitida harakatlanish lozim bo'lib qolganligi, inson salomatligi uchun salbiy ta'sirga ega sun'iy mahsulotlarning voz kechishga bo'lgan dunyo aholisining "sog'lom mahsulot"larga intilishi kuchayib borishi meva-sabzavotlarni talab yuqori bo'lgan mintaqalarga eksport qilish imkoniyati tobora ortishiga olib kelmoqda. Buning ijobiy samarasi o'laroq, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport hajmi uzluksiz o'sishiga erishishning potensial imkoniyati yuqori hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda eksport hajmi, ayniqsa meva-sabzavotlar eksporti hajmi o'sishiga qulay infratuzilma mavjudligi muhim o'rin tutishi shubhg'asizdir. Jumladan, eksport jarayoniga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri logistika infratuzilmasi tarmoqlarining rivojlanishi, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va xizmatlar eksporti hajmining sezilarni rivojlanib borishi va h.k.

Bildirilgan fikr-mulohazalarni amaliy tahliliy ma'lumotlar asosida ko'rib o'tish uchun quyidagi tahliliy ma'lumotlarni ilmiy tadqiq etish mumkin:

1) meva-sabzavot mahsulotlari eksportining mamlakat eksport hajmi va tarkibiy tuzilishidagi ulushi va ahamiyati;

2) meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmining mamlakat YaIMda tutgan o'rni va ahamiyati;

3) meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmiga ta'sir etuvchi omillarning statistik va ekonometrik tahlili;

4) tadqiqot predmeti va obyektining faoliyati nuqtai nazariyat mamlakatning YaIMga ta'sir etuvchi omillar, yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari hajmi va ularning eksport ko'rsatkichlari, logistik tuzilmalar xizmatlari hajmi va eksporti singari omillarning ta'sirini ekonometrik tahlil qilish va omillarning ta'sir kuchini statistik nuqtai nazardan baholash;


5) meva-sabzavot mahsulotlari eksporti va logistik tuzilmalar xizmatlari hajmi bilan bog'liq omillarning o'zaro ta'sirini ekonometrik tahlil qilish va o'zaro bog'liqlikni statistik baholash.

Bunday tahliliy amallar ilmiy tadqiqot natijalari va real statistik ko'rsatkichlar, jumladan Jahon Banki, O'zbekiston Respublikasi Statistik davlat qo'mitasi va "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasining 10 yillik oraliq davridagi rasmiy

ma'lumotlariga asoslangan holda bajarilgan.

Ta'kidlangan ko'rsatkichlarning dastlabkisi meva-sabzavot mahsulotlari eksportining mamlakat eksport hajmi va tarkibiy tuzilishidagi ulushi va ahamiyatini tahliyl qilishdir. Quyida 2013-2022-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti eksporti tarkibi va hajmida meva-sabzavot mahsulotlari ekporti ulushini ko'rib chiqamiz (4-rasm).

Bu rasm ma'lumotlarida 2013-2022-yillarda O'zbekiston yalpi eksporti hajmi, yalpi eksport diversifikatsion tarkibidan biri hisoblangan meva-sabzavot mahsulotlari ekporti hajmi va uning yalpi eksport hajmidagi ulushi hajmidagi ulushi ifodalangan. Unga ko'ra, mamlakat yalpi eksport hajmi 2013-2022-yillar oralig'ida kamayish tendensiyasi bilan tebranib turganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2013-yilda yalpi eksport hajmi 14795,1 mln. AQSH doll.ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda mazkur ko'rchatkich 13990,4 mln. dollarni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, mazkur ko'rsatkich hajmi ushbu yillar oralig'ida o'rtacha 5 foizga pasaygan.



4-rasm. 2013-2022 yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti eksporti tarkibida va hajmida meva-sabzavot mahsulotlari ekportining ulushi¹⁰

2021-yildan eksport hajmida sezilarli ortish kuzatilib, mazkur ko'rsatkich 17458,7 mln. dollar yoki 2013-yilga nisbatan 118 foizga ortgan. 2022-yilga esa eksport hajmi 2021-yilga nisbatan 13,5 foizga pasayib, 15102,3 mln. AQSh doll.dan iborat bo'lgan. 2022-yilda dunyoda yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyat bunga asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Mazkur omil eskort infratuzilmasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi, potensial va joriy iste'mol talabini cheklashi oqibatida eksport hajmining pasayishi kuzatilgan deyish mumkin.

